



“Tasdiqlayman”
 SamDU o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor:
 A.S.Soleev
 30.08.2021 –yil

60710100–KIMYOVIY TEXNOLOGIYA

(ISHLAB CHIQUARISH TURLARI BO‘YICHA) TA‘LIM YO‘NALISHINING FANLAR KATALOGI

№	Fanning kodi	Fanning nomi	Fanning qisqacha tavsifi	Kredit miqdori	Semestr	Professor-o‘qituvchilar: F.I.Sh., ilmiy unvoni va darajasi
1.00-Majburiy fanlar						
1.01	MATM1007	Matematika	Fanni o‘qitishdan maqsad - matematika fanining asosiy maqsadi talabalarga matematika nazariy bilimlarini berish, tegishli tushunchalar, tasdiqlar, matematikaga xos bo‘lgan isbotlash usullarini o‘rgatish, olgan nazariy bilimlarini masalalar yechishga tadbiq eta bilish, ularda mantiqiy mushohada qilish, fazoviy tasavvur hamda abstrakt tafakkur kabi, inson faoliyatining barcha sohalari uchun zarur bo‘lgan qobiliyatni shakllantirishdan iboratdir. Fanning vazifasi - Matematika fani o‘qitishning vazifasi talabalarga Matematika nazariyasiga oid bilimlar berish, olgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo‘llay bilishga o‘rgatishdan va oqibat natijada ularni yo‘nalishga mos jarayonlar matematik modelini tuzish va tekshira olishga o‘rgatishdir.	7	1	U.Sh.Ubaydullayev – SamDU, “Differensial tenglamalar” kafedrası dotsenti. Sh.M. Burxanov – SamDU, “Differensial tenglamalar” kafedrası assistenti.
1.02	ATM1005	Axborot texnologiyalari	Axborot texnologiyalarning texnik va dasturiy ta‘minoti, operatsion tizimlar, ofis ilovalari, kompyuter grafikasi, kompyuter tarmoqlari, internet xizmatlari, ijtimoiy tarmoqlar, elektron ta‘lim resurslari, elektron hukumat asoslari, kimyoga oid dasturlardan foydalanish va kompyuter algebrasi tizimlarini o‘rgatish hamda mutaxassislik oid masalalarni yechishda axborot-	4	2	T.Djiyanov. Samarqand davlat universiteti, «Matematik modellash tirish» kafedrası katta o‘qituvchisi

			kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish ko`nikmalari shakllantirish iborat.			
1.03	FIZM1006	Fizika	Umumiy fizika fanining asosiy maqsadi talabalarni asosiy fizik hodisalar, ularning mexanizmlari, qonuniyatlari va amaliy qo'llanishlari bilan tanishtirishdir. Umumiy fizika fanining asosiy vazifasi talabalarda ilmiy-amaliy dunyoqarashni, ya'ni fizikaviy hodisalarning tabiatini to'g'ri tasavvur qilish, tabiiy fanlar sohasida qo'yilgan har bir aniq vazifalar mazmunini umumiy fizika qonunlari bilan bog'lash; asosiy fizikaviy o' Ichov asbob-uskunalaridan foydalana bilish; fizika fanining rivojida o'zbek allomalarining qo'shgan hissalaridan g'ururlanishni shakllantirishdir; talabalarining mustaqil ishlash malakasini, tahliliy mulohaza yuritish qobiliyatini, shuningdek asosiy va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish mahoratini o'stirish.	6	2	Jabborov I. - "Umumiy fizika" kafedrası dotsenti, fizika matematika fanlari nomzodi.
1.04	O'ZTM1002	O'zbekistonning yangi tarixi	Fanni o'qitishning maqsadi — mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o'zgarishlar, tub islohotlarning mazmunmohiyatini ko'rsatish va jamiyat hayotida talabaning o'rnini, o'zligini anglatishdan iborat. Fanni o'qitishning vazifalari mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistonda yuzaga kelgan murakkab vaziyatni hamda mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hamda boshqa sohalardagi islohotlarning mazmun-mohiyatini talabalarga tushuntirib berish, ularni Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash hamda milliy g'urumi shakllantirishdan iborat.	2	1	Normurodova G.B. — SamDU, "O'zbekiston tarixi" kafedrası mudiri, tarix fanlari doktori. Nasrullayev M.I. — SamDU, "O'zbekiston tarixi" kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi. Xoliqulov R.Sh.- SamDU, "O'zbekiston tarixi" kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi.
			Fanni o'qitishdan maqsad – yoshlarni zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar			J.Ya.Yaxshilikov-SamDU "Falsafa"

1.05	FALM1006	Falsafa	bilan qurollantirish hamda ularda o'z-o'zini anglash va to'g'ri fikrlash mahorati, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi – tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid eng umumiy qonuniyatlarga oid falsafiy bilimlar, qonunlar va kategoriyalar mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali insonning hayotdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish.	6	5	kafedra professori, A.A. SamDU, "Falsafa" kafedra datsenti, M.S.Yusupov, SamDU, "Falsafa" kafedra assistenti
1.06	O'Z(R)TM1006	O'zbek (rus) tili	Fanni o'qitishdan maqsad — talabalarning yangi alifbo imlo qoidalari, davlat tilida ish yuritish va mutaxassisligiga oid terminlarni bilishining ilmiy — nazariy asoslarini, hamda ularni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qo'llay olishni, ilmiy va ta'lim jarayoniga tatbiq qilishning ilmiy-metodik imkoniyatlarini yoritishdan iborat. Fanning vazifasi — Talabalarni imlo qoidalari, ish yuritish hamda mutaxassislik terminologiyasi bilan tanishtirish.	6	1-2	M.N.Narzieva. Samarqand davlat universiteti, o'zbek tili va adabiyoti kafedra assistenti
1.07	CHETM1008	Xorijiy til	Fanni o'qitishdan maqsad O'rganilayotgan chet tilini kommunikativ, lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv, strategik, kasbiy, umummadaniy kompetentlikni integrallashgan yondashuv asosida o'qitishdan iborat. Fanning vazifasi — Talabalarni chet tilini faol egallashga o'rgatish, ya'ni dastur asosida berilgan mavzular bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini chet tilida bayon eta olish hamda shu tilda bildirilgan fikrlarni anglashdan iborat. Il. Asosiy nazariy qism (amaliy mashg'ulotlar)	8	1-2-3-4	SamDU, Ingliz tili kafedra assistenti. Negova F.Sh.
			Fanni o'qitishdan maqsad — talabalarning yangi alifbo imlo qoidalari, davlat tilida ish yuritish va			M.N.Narzieva. Samarqand davlat universiteti, o'zbek tili

1.08	AO‘ZTM1001	O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi	mutaxassisligiga oid terminlarni bilishining ilmiy — nazariy asoslarini, hamda ularni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qo‘llay olishni, ilmiy va ta‘lim jarayoniga tatbiq qilishning ilmiy-metodik imkoniyatlarini yoritishdan iborat. Fanning vazifasi — Talabalarni imlo qoidalari, ish yuritish hamda mutaxassislik terminologiyasi bilan tanishtirish.	1	1	va adabiyoti kafedrası assistenti
1.09	JISM1004	Jismoniy tarbiya va sport	Fanni o‘qitishdan maqsad — talabalarni jismoniy madaniyat va sport sohasidagi asosiy tushunchalar, (jismoniy madaniyat, O‘zbekiston jismoniy madaniyati, jismoniy tarbiya, O‘zbekiston sporti, badan tarbiya, bolalar sporti, sport, jismoniy madaniyat tizimi, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, sport mashqi, jismoniy sifatlar, jismoniy ta‘lim, jismoniy madaniyat harakati, Olimpiya o‘yinlari, Olimpiya harakati, talabalar sporti, uch bosqichli sport musobaqasi ”Umid nihollari”, ”Barkamol avlod”, "Universiada” va h.k) maxsus nazariy bilimlar, jismoniy rivojlanish, tayyorgarlikni o‘stirishga oid zamonaviy nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni oshirishga yordam beruvchi vosita va metodlarni, o‘z-o‘zini jismoniy mukammallashtirish, ommaviy sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil qilish va ulardan mustaqil foydalanishga o‘rgatish.	4	1-2	O.K.Raupov. SamDU Fakultetlararo jismoniy madaniyat kafedrası dotsenti A.A.Qurbonov SamDU Fakultetlararo jismoniy madaniyat kafedrası katta o‘ituvchisi
1.10	KMTM1003	Kompyuterli matematik tizimlar	Kimyo, algebra, differensial tenglamalar, matematik fizika tenglamalari, hisoblash usullari, matematik modellashtirish masalalarini kompyuter yordamida ishlash ko‘nikmalari shakllantirish iborat.	3	2	T.Djiyanov. Samarqand davlat universiteti, «Matematik modellashtirish» kafedrası katta o‘qituvchisi

1.11	UNKM10015	Umumiy va noorganik kimyo	Kimyoviy texnologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'qitilayotgan talabalar umumiy kimyo tushunchalari va qonunlari, umumiy kimyoga doir barcha mavzularni, kimyoviy elementlar va ular birikmalarining tuzilishi, kashf qilinish tarixi, tabiatda uchrashi, olinish usullari, fizikaviy va kimyoviy xossalari, qo'llanilishi, metallar va qotishmalar xossalari, metallarni sinash usullari, metallmas konstrukcion materiallar, hozirda rivojlanib borayotgan nanomateriallar, kompozitsion materiallar, smart materiallar, keramika va shisha, bog'lovchi materiallar, kamyob va nodir metallar ishlab chiqarishning zamonaviy va istiqbolli texnologik yechimlari haqida hamda qattiq materiallar to'g'risidagi fundamental bilimlarga tayangan holda nazariy kimyo tushunchalari asosida bilishi zarur.	15	1-2	T.S.O'razov – SamDU, “Noorganik kimyo va materialshunoslik” kafedrası dotsenti. I.E.Abduraxmanov – SamDU, “Noorganik kimyo va materialshunoslik” kafedrası dotsenti. A.S.Mamatov – SamDU, “Noorganik kimyo va materialshunoslik” kafedrası assistenti.
1.12	ChGMGM1005	Chizma geometriyasi va muhandislik grafikasi	Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga kelajakda o'zlarining texnik fikrlarini chizma orqali namoyon qilish, tasvirlangan har qanday buyum, yoki ob'ektlarning chizmasi bo'yicha ishlash printsiplari va konstruktiv tuzilishini tushunib olish va tasavvur qila olish uchun bilim, ko'nikma va malaka berishdan iborat. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fani quyidagi maqsadlarni ko'zda tutadi	5	1	O'.B.Qarshiboyev – SamDU, “San'atshunoslik” kafedrası, katta o'qituvchisi B.E.Xujamurodov – SamDU, “San'atshunoslik” kafedrası assistenti.
1.13	AKIMM10012	Analitik kimyo	Fanni o'qitishdan maqsad – “Analitik kimyo” fani talabalarni o'qish davomida nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, analizning umumiy va nazariy asoslari, kimyoviy, fizik-kimyoviy va fizikaviy metodlarning asosiy printsiplari bilan tanishtiradi Fanning vazifasi – talabalarga analitik kimyo kursi xaqida umumiy tushuncha berish, kimyoviy, fizik-	12	3-4	SamDU, Analitik kimyo kafedrası. k.f.d. prof. E.Abduraxmanov, k.f.n. dots.E.Ro'ziev, f-m.f.n. dots.A.Quvatov,

			kimyoviy va fizikaviy metodlarning asosiy prinsiplari bilan tanishtirishdan iborat.			k.f.n. dots. Q.Muradov, (PhD). R.Begmatov
1.14	ELIM1005	Elektrik injiniring	Elektr energiyasidan foydalanib ishlaydigan mashina va mexanizmlarning fizikaviy asoslarini va elektr energiyasi, uni ishlab chiqarish, uzatish, undan foydalanish bilan bog'liq texnologiyalarini o'rganish	5	4	Axrorov Subxon Qurbonovich, SamDU "Qattiq jismlar fizikasi" kafedrasining dotsenti.f.m.n
1.15	FKKIM10013	Fizikaviy va kolloid kimyo	Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda Fizikaviy va kolloid kimyo qonunlarining ma'nosini yoritib berish, shu qonunlarning qo'llanish sohaslarini o'rgatish va aniq kimyoviy masalalarni hal qilishda ushbu qonunlarning amaliy imkoniyatlarini to'g'ri tushuntirish. Shu sababli, fizikaviy kimyoda fan asoslarini o'rganishda, bu fanning barcha bo'limlari o'rtasidagi mavjud bog'liqlikni yoritish kabi tushunchalardan bilim ko'nikma va malaka shakllantirishdir	13	3-4	Sayitqulov Sh.M. SamDU, "Fizikaviy va kolloid kimyo" kafedrası dots. Ruziyev I.X. SamDU, "Fizikaviy va kolloid kimyo" kafedrası (PhD)
1.16	OKIMM10013	Organik kimyo	Fanni o'qitishdan maqsad talabalarga organik kimyo asoslarini, organik birikmalarning tuzilishi bilan kimyoviy – fizikaviy xossalarni bog'laydigan umumiy qonunlarni, organik birikmalarni sintez qilishning zamonaviy usullarini, kimyoviy xossalarni, ularning sanoatda, qishloq xo'jaligida, tibbiyotda va boshqa sohalarda qo'llashni o'rgatishdan iborat.	13	5-6	A.Saidov – Organik sintez va biorganik kimyo kafedrası dotsenti, (PhD)
1.17	MEXM1007	Amaliy mexanika	Fanning mazmuni «Amaliy mexanika» fanini o'qitishdan maqsad, bakalavr yo'nalishi malakaviy tavsifnoma talablariga binoan talabada, o'zi tanlagan soha texnologik jarayonlarida qo'llaniladigan mashina uskunalarning ishonchli ishlashini ta'minlash va nazorat qilish, loyixalash - konstruktorlik ko'nikmalarini shakllantirish. Texnologik jarayon tizimi mashina va jixozlarini samarali, hamda ishonchli ishlashini ta'minlashda, yangi liniyalarni loyihalash va eskilarini	7	3	O.Abdullayev, SamDU, "Nazariy va amaliy mexanika" kafedrası dotsenti. f.m.n

			rekonstruktsiya qilishda nazariy mexanika qonunlarini tatbiq etgan holda kerakli xisob-kitoblarga asoslangan xolda zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarni o'rgatishdir.			
1.18	UKTEXM10012	Umumiy kimyoviy texnologiya	Fanni o'qitishdan maqsad- sanoatda amalga oshiriladigan kimyoviy texnologik jarayonlar, ularning qonuniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari, xom-ashyo va issiqlik-energiya resurslaridan unumli foydalanish, iqtisodiy samaradorligi, ekologik xavfsizligi xaqida yo'nalish profiliga mos bilim ko'nikma va malaka shakllantirishdir. Fanning vazifasi - Kimyoviy texnologiyaning asosiy elementlari, sinflarini; kimyo sanoatining xomashyosi, uning turlari, manbalari va ularni boyitish usullarini; noorganik moddalar ishlab chiqarish usullarini o'rgatishdan iborat.	12	3-4	Shukurov B.Sh. – SamDU, “Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya” kafedrası assistenti, Mansurova D.A. - SamDU, “Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya” kafedrası assistenti
1.19	KIJQM10013	Kimyoviy injiniring jarayonlari va qurilmalari	Texnologik jarayonlarni talab darajasida tashkil qilinishiga erishishning muhim sharti institutlarda, konstruktorlik byurolarida va ishlab chiqarish korxonalarida jarayonlarni racional rejimda borishini ta'minlovchi malakali kadrlar, mutaxassislar etishtirishni taqazo qiladi. Shuni nazarga olganda bo'lajak mutaxassislar texnologik jarayonlar, ularning nazariy asosi, ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qurilmalarni ishlatish va boshqara olish ko'nikmalarini egallagan bo'lishlari zarur. “Asosiy texnologik jarayonlar va qurilmalar” fanining mazmuni esa aynan shu vazifalarni hal qilishga yo'naltirilgandir.	13	4-5	Tillyayev A.J. – SamDU, “Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya kafedrası” dotsenti, k.f.n.
1.20	SECOM1005	Sanoat ekologiyasi	Fanning maqsadi–shahar va sanoat ekologiyasi to'g'risida umumiy tushuncha berish; turar joylarni ekologik loyihalashtirish; shaharlar ekologik monitoringini olib borish; urbanizatsiya jarayoni va uning oqibatlarini o'rganish; shahar havosining	5	7	S.M.Boboyev– SamDU, “Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrası professori, texnika

			ekologik xolatini yaxshilash; aholini toza ichimlik suv bilan ta'minlanishiga erishish; suv xavzalarini ekologik xolatini yaxshilash; sanoat chiqindilari va ularni qayta ishlash; chiqindilarning ruxsat etilgan ko'rsatkichlari; sanoat shaharlarni ekologik barqaror rivojlanishini ta'minlashni o'rgatishdan va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashdan iboratdir.			fanlari doktori
1.21	HFXM1003	Hayot faoliyati xavfsizligi	Fanni o'qitishdan maqsad - bo,,lajak mutaxassislarga hayotiy faoliyatlarida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, xususiyatlarini, oqibatlarini va ularni yo,,qotish usullarini, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, tabiiy, texnogen va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlardan, hamda boshqa halokatlardan aholini himoya qilish, ularni nazariy va amaliy jihatdan himoyalashga tayyorlash hamda jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko,,rsatish qoidalarini o,,rgatishdan iborat.	3	1	Qobilov E.E – SamDU, “Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrası” mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor.
1.22	KIQMM1002	Korxonalar iqtisodiyoti va menejmenti	Korxonalar iqtisodiyoti va menejmenti fanini o'qitishdaan maqsad talabalarga iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslari, iqtisodiyotning asosiy tushinchalari va kategoriyalarini, iqtisodiy qonunlar va tamoyillarni o'rganish hamda ularni amaliyotga tadbiiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat	2	8	S.Q. Qurbonov — SamDU, "Inson resurslarini boshqarish " kafedrası assistenti
1.23	KIMODM1003	Kimyo injiniringida modellashtirish va avtomatlashtirish	Fanni o'qitishdan maqsad – kimyoviy texnologik tizimlarni zamonaviy tadqiqot usullari bo'lgan matematik modellashtirish usullarini qo'llab, kimyoviy injine-ring jarayonlarini tahlil qilish, maqbul-lashtirish va sintez qilish masalalarini yechish bo'yicha zamonaviy boshqarish tizimlarini tashkiliy, matematik va dasturiy ta'minoti bo'yicha talabalarga bilim berish hamda olingan bilimlarni kimyoviy injenering tizimlarini	3	7	Qurbonov J.M. – SamISI, “Servis kafedrası” professori, Shukurov B.Sh. – SamDU, “Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya” kafedrası assistenti

			hisoblash eksperimentini o'tkazish yo'li bilan o'rganishni va texnologik jarayonlarni maqbullashtirish va boshqarish masalalarini yechish uslublarini o'rgatishdan iboratdir.			
1.24	MSTANM1003	Metrologiya, standartlashtirish va sifatni boshqarish	Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda iqtisodiyotimizning texnika – texnologiya, menejment va marketing sohalaridagi ishlab chiqarish, savdo, nazorat va iste'mol bilan bog'liq bo'lgan turli metrologik, standartlashtirish sifat va sifat boshqaruvi, sertifikatlashtirish bo'yicha masalalar bilan shug'ullanish, hamda me'yoriy hujjatlar va standartlar bilan ishlash borasida yo'nalish profiliga mos etarli bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir. Fanning vazifasi - talabalarga uzluksiz ta'lim tizimida "Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish" bo'yicha tayyorlashdan kelib chiqib, bunda standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish bo'yicha nazariy, amaliy va me'yoriy hujjatlar bo'yicha ma'lumotlar o'rganiladi. Bu borada asosiy masala qilib sifat masalasiga e'tibor qaratiladi.	3	6	Haydarov.X. SamDU, "Nazariy fizika va kvant elektronikasi" kafedrası dotsenti. f.m.n.
1.25	POLM1004	Polimerlar kimyosi va texnologiyasi	"Полимер моддапар технологияси" Фани полимерларнинг куйи молекуляр бирикмалардан Фаркини; полимерларнинг узига хос хусусиятларини; талабаларда полимерларнинг синтези, физик кимёвий хоссаларни; полимерлар зритмаларининг хоссаларини тамил ва тадкик ЭТИШНИ*, янги турдаги полимерларнинг яратиш илий агосларини ТУЗИЛИШ ва ХОССа муносабати конуниятлари ОРКШТИ ургатиш; ЯНГИ шаклланаётган ва оммалашаётган фан за технолосияларни тараккий зттиришда окори молекуляр бирикмалар Урнини кУрсатишдан иборат.	4	6	Fayzullayev N.J. SamDU "Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya" kafedrası prof, t.f,d, Shukurov B.Sh. "Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya" kafedrası assistenti

1.26	NMKTМ10012	Noorganik moddalar kimyoviy texnologiyasi	«Silikat va qiyin suyuqluvchan materiallar texnologiyasi», «Kamyob tarqoq, va nodir metallar texnologiyasi», «Noorganik moddalar texnologiyasi» sohalari bo'yicha keramika va shisha, bog'lovchi material, mineral o'g'it, kamyob va nodir metallar ishlab chiqarishning zamonaviy va istiqbolli texnologik yechimlari haqida ma'lumot berish, mahsulotlar olishning nazariy va amaliy asoslari bilan tanishtirish, sifatini yaxshilash yo'llarini topish, ishlab chiqarish sur'atini oshirish hamda tannarxini kamaytirishga oid materiallar bilan yaqindan tanishtirishdir.	12	2	Murodov R. – SamDU, “Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya kafedrası” dotsenti, k.f.n, Tursunova N.S. – SamDU, “Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya kafedrası” assistenti (PhD)
1.27	KICHETM3007	Kimyoviy ishlab chiqarish energotexnologiyalari	Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda kimyoviy texnologik jarayonlarni termodinamikasi, ishlab chiqarish jarayonlarini termodinamik baholash, energiyani tejash, ikkilamchi energiya manbalarini aniqlash va maqsadli foydalanish uchun texnologik hisoblarni o'rgatish hamda amaliyotida tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.	7	7	Tillyayev A.J. – SamDU, “Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya kafedrası” dotsenti
1.28	NMICHLM1008	Noorganik moddalar ishlab chiqarishning uskunolari va loyihalash	Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda noorganik moddalar ishlab chiqarish korxonalarida qo'llaniladigan uskunalar turlari, tuzilishi, ishlatish ko'lami, xisoblash asoslari va ulami muayyan sharoitlarga mos xolda tanlash hamda amaliy masalalarni hal qilishni o'rgatish, o'zining fikr-mulohaza, xulosalarini asosli tarzda aniq bayon etish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.	7	8	Tillyayev A.J. – SamDU, “Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya kafedrası” dotsenti, k.f.n.
			Tibbiy bilim asoslari va bolalar sog'lig'ini saqlash bo'yicha o'qitishning bo'lg'uvsi o'qituvchining shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati, Tibbiy bilim asoslari va bolalar sog'lig'ini saqlash dasturini oliy o'quv yurtlarida o'qitish tartibi. Bolalar va kattalar o'rtasidagi			Z E.Qobilov – SamDU, “Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrası professori, biologiya fanlari doktori.

1.29	TBAM1002	Tibbiy bilim asoslari	jarohatlanish va kasallikning oldini olish, ularni tibbiy sanitariya jihatdan tarbiyalash va sogʻlom hayotni tasdiqlash, tibbiy yordam koʻrsatish va ularni parvarish qilishni taʼminlashda tibbiyot hamshiralari va oʻqituvchilarning roli. Talabalarni aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimi, Oʻzbekiston Respublikasi qonunlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlarining talablari, shuningdek Favqulotdda vaziyatlar, hamda Oliy va Oʻrta maxsus taʼlim vazirliklari farmoyishlari, koʻrsatmalari, aholini favqulodda vaziyatlardan muhofazalanishga oʻrgatishni tashkil etish yoʻllari va uslubiyatlari bilan tanishtirishdan iborat.	2	6	
1.30	KFPM1003	Kasbiy faoliyat psixologiyasi	Umumiy psixologiya fanining mohiyati, psixikaning rivojlanishi, shxs psixologiyasi, bilish jarayonlari, shaxsning hissiy-irodaviy sohasi individual-psixologik xususiyatlar, psixologik holatlar hamda shaxsning shakllanishi jarayonida yuzaga keladigan psixologik, fizologik va jismoniy oʻzgarishlar, shuningdek shaxsga xos sifat, xususiyat, holatlar taʼlim-tarbiya jarayonini toʻgʻri tashkil qilishning yoshga bogʻliq jihatlarini	3	8	G.Xalbaeva, SamDU “Umumiy psixologiya” kafedrası assistenti
2.00-Tanlov fanlari						
2.01	1TF2004	t.f.1. Polimerlar texnologiyasi va ularni qayta ishlash	Fanni oʻqitishdan maqsad – talabalarga polimer moddalar texnologiyasi fani polimerlarning quyi molekular birikmalardan farqini, polimerlarning oʻziga xos xususiyatlarini; talabalarda polimerlarning sintezi, fizik kimyoviy xossalarni; polimerlar eritmalarining xossalarni tahlil va tadqiq etishni; yangi turdagi polimerlarning yaratish ilmiy asoslarini tuzilish va xossa munosabati qonuniyatlari orqali oʻrgatish; yangi shakllanayotgan va ommalashayotgan fan va texnologiyalarni taraqqiy ettirishda yuqori molekular	4	5	Fayzullayev N.I. – SamDU, “Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya” kafedrası professori, t.f.d, Shukurov B.Sh. – SamDU, “Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya” kafedrası assistenti

			birikmalar o'rnini ko'rsatishdan iborat.			
2.02	2TF2004	t.f.2. Noorganik moddalarning ishlab chiqarish texnologiyasi	“Noorganik moddalar ishlab chiqarish texnologiyasi” fanining asosiy maqsadi - talabalarni noorganik moddalar texnologiyasi asosini tashkil etuvchi sulfat kislota va bog'langan azotli birikmalarni ishlab chiqarish texnologiyalari, fizik kimyoviy va muxandislik asoslarini egallashlariga yordam berish hamda talabalarda texnologik hisoblarni bajarish taffakkurini shakllantirish va rivojlantirish, o'zining fikr-mulohaza, xulosalarini asosli tarzda aniq bayon etishga o'rgatish, egallangan bilimlar bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.	4	5	Murodov R. – SamDU, “Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya kafedrası” dotsenti, t.f.n , Tursunova N.S. – SamDU, “Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya kafedrası” assistenti (PhD)
2.03	3TF2004	t.f.3.Kimyo texnologiyada energiya va resurs tejamkor jarayonlar	Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda kimyoviy texnologik jarayonlarni termodinamikasi, ishlab chiqarish jarayonlarini termodinamik baholash, energiyani tejash, ikkilamchi energiya manbalarini aniqlash va maqsadli foydalanish uchun texnologik hisoblarni o'rgatish hamda amaliyotida tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.	4	6	Tillyayev A.J. – SamDU, “Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya kafedrası” dotsenti, t.f.n.
2.04	4TF2004	t.f.4.Katalitik jarayonlarni modellashtirish va maqbullashtirish	Fanni o'qitishdan maqsad – kimyoviy katalitik jarayonlarni zamonaviy tadqiqot usullari bilan matematik modellashtirish usullarini qo'llab, kimyoviy katalitik jarayonlarini tahlil qilish, maqbul-lashtirish va sintez qilish masalalarini yechish bo'yicha zamonaviy boshqarish tizimlarini tashkiliy, matematik va dasturiy ta'minoti bo'yicha talabalarga bilim berish hamda olingan bilimlarni kimyoviy injenering tizimlarini hisoblash eksperimentini o'tkazish yo'li bilan o'rganishni va katalitik jarayonlarni maqbullashtirish va boshqarish masalalarini yechish uslublarini o'rgatishdan iboratdir.	4	6	Fayzullayev N.I. – SamDU, “Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya” kafedrası professori,t.f.d. Shukurov B.Sh. – SamDU, “Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya” kafedrası assistenti
2.05			Katalizatorlar texnologiyasi” fanni o'qitishdan maqsad – organik va noorganik moddalar asosidagi jarayonlarni	4	7	Fayzullayev N.I. – SamDU, “Polimerlar

	5TF2004	t.f.5.Katalizatorlar texnologiyasi	o'rganish, yangi katalizator-larni ishlab chiqish va qo'llash, ularning tarkibi va tuzilishini maqbullashtirish, kataliz, katalizator ishlab chiqarish va ularni qo'llash sohasidagi masalalarni hal qilish katalizning nazariy asoslarini rivojlantirish, katalizatorlar sintezi, ular tarkibini va tuzilishini maqbullashtirish, yangi katalizatorlar yaratish bo'yicha amaliy va konstruksion masalalrni bilishdan iborat.			kimyosi va kimyoviy texnologiya" kafedrası professori,t.f.d. Shukurov B.Sh. – SamDU, "Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya" kafedrası assistenti
2.06	6TF2005	t.f.6.Tabiiy va texnik ob'ektlar analizi	Tabiiy va texnik obyektlaranalizi fani zamonaviy analitik kimyo fanining bir qismi hisoblanadi. Namuna olish, namunaning agregat holatiga ko'ra analiz qilish usullarini tanlash. Texnik va tabiiy obyektlarni analiz qilish mexanizmini tushuntirishga asoslangandir.	5	7	SamDU, Analitik kimyo kafedrası. k.f.d. prof. E.Abduraxmanov, k.f.n. dots. Z.Muradova, (PhD). R.Begmatov
2.07	7TF2004	t.f.7.Eritmalar termodinamikasi	Real eritmalar da molekularning o'zaro ta'siri, ideal eritmalar xossalari, eritmalar nazariyalari haqida, tarkibida ko'p komponentli sistemalar bo'lgan eritmalar ning termodinamikasi, kimyoviy potensial, suyuq binar eritmalar ning to'yingan bug' bosimi, Raul qonuni, ideal eritmalar, suyultirilgan eritmalar, real eritmalar, fraksiyalab haydash, uchmaydigan moddalar eritmalarining qaynash temperaturasi, ideal gaz eruvchanligi, osmotik bosim, polimer eritmalar termodinamikasi tushunchalarini chuqur o'zlashtirishdan iborat.	3	8	Trobov X.T., SamDU, "Fizikaviy va kolloid kimyo" kafedrası professori, k.f.d.
2.08	8TF2005	t.f.8.Organik moddalar texnologiyasi	Fanni o'qitishdan maqsad talabalarga organik birikmalarni sanoat miqyosida olishning ilmiy asoslarini o'rgatish bo'lib, sanoatda organik birikmalarni sintez qilishning zamonaviy usullarini, kimyoviy xossalarni, ularning sanoatda, qishloq xo'jaligida, tibbiyotda va boshqa sohalarda qo'llashni o'rgatishdan iborat.	3	8	Qodirov O.Sh. – farm.f.n., dots. SamDU Organik sintez va bioorganik kimyo kafedrası dotsenti

2.09	9TF2004	t.f.9.Neft va tabiiy gazni qayta ishlash texnologiyasi	Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga Respublikamizdagi neft-gaz sanoati haqida, neftni qayta ishlashdagi katalitik jarayonlar va ularning mexanizmlari, neft va tabiiy gazni krekingi va riformingi asoslarini, neftni rektifikatsiyasini, tabiiy gaz pirolizi mexanizmini, neft va tabiiy gaz asosida monomerlar sintez qilish, neft uglevodorodlari asosida organik birikmalar sintez qilish jarayonini, neft tarkibidagi uglevodorodlarning harorat ta'sirida kimyoviy o'zgarishini o'rgatishdan iborat.	4	8	SamDU, Analitik kimyo kafedrası. k.f.d. prof. E.Abduraxmanov, k.f.n. dots. Q.Muradov, (PhD). R.Begmatov
------	---------	--	---	---	---	--

“Kelishildi”

O'quv-uslubiy boshqarma
boshlig'i:

M.O'.



Fakultet dekani:

N.Musulmonov

M.O'.

